



OLIY TA'LIM TIZIMIDA TASVIRIY SAN'AT
O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH: AN'ANAVIY
YONDASHUVLAR VA ZAMONAVIY TALABLAR

Babadjanov Axmadjon Xudayberdievich

Guliston davlat universiteti, San'atshunoslik fakulteti decani

Annotatsiya: Ushbu maqolada tasviriy san'atning o'tkazilgan rivojlanish jarayoni, uning ta'limgan sohasidagi roli va ahamiyati haqida so'z boradi. Maqolada bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini tayyorlashda yuzaga kelayotgan qiyinchiliklar, xususan, ta'limgan tizimidagi kamchiliklar va o'quvchilarni ijodiy salohiyatini shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar tahlil qilinadi. Oliy o'quv yurtlarida tasviriy san'at ta'lmini zamонавиј талабларга moslashtirish, yangi texnologiyalarni o'qitishga integratsiyalash va xalqaro hamkorlikni rivojlanish zarurligi ta'kidlanadi. Buning natijasida, o'quvchilarni estetik va ijodiy qobiliyatlarini rivojlanish, ularning san'atga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida an'anaviy va zamонавиј yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarurati o'rta ga chiqadi. Shuningdek, tasviriy san'at o'qituvchilarining pedagogik kompetensiyasini rivojlanish uchun oliy ta'limgan muassasalarining o'quv dasturlarini takomillashtirish lozimligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: San'at ta'limi, badiiy tayyoragarlik, kompetentlik, ijodiy tafakkur, oliy ta'limgan, tasviriy san'at, pedagogika, ijodiy salohiyat, talaba tajribasi, san'atshunoslik, tasviriy san'at maktablari, ta'limgan tizimi

Annotation: This article discusses the development process of visual arts, its role and importance in the field of education. It analyzes the challenges faced in preparing future visual arts teachers, particularly the shortcomings in the education system and factors influencing the development of students' creative potential. The article emphasizes the need to adapt visual arts education in higher educational institutions to modern requirements, integrate new technologies into teaching, and foster international cooperation. As a result, the necessity of combining traditional



and modern approaches arises in order to develop students' aesthetic and creative abilities and enhance their interest in art. Additionally, the article addresses the need to improve the curricula of higher education institutions to develop the pedagogical competencies of visual arts teachers.

Keywords: Art education, artistic preparation, competence, creative thinking, higher education, visual arts, pedagogy, creative potential, student experience, art studies, visual arts schools, education system.

Аннотация: В статье рассматривается процесс развития изобразительного искусства, его роль и значимость в сфере образования. Анализируются проблемы, с которыми сталкиваются при подготовке будущих преподавателей изобразительного искусства, в частности, недостатки в системе образования и факторы, влияющие на развитие творческого потенциала студентов. Подчеркивается необходимость адаптации обучения изобразительному искусству в высших учебных заведениях к современным требованиям, интеграции новых технологий в преподавание и развития международного сотрудничества. В результате возникает необходимость сочетания традиционных и современных подходов для развития эстетических и творческих способностей студентов, а также повышения их интереса к искусству. Кроме того, в статье говорится о необходимости совершенствования учебных программ высших учебных заведений для развития педагогических компетенций преподавателей изобразительного искусства.

Ключевые слова: Художественное образование, художественная подготовка, компетентность, творческое мышление, высшее образование, изобразительное искусство, педагогика, творческий потенциал, опыт студентов, искусствоведение, школы изобразительного искусства, образовательная система.

O‘lkamiz o‘tmishida tasviriy san’at keng ko‘lamli taraqqiy etgan bo‘lib, har bir davr o‘z mazmuni, shakli xarakteri jihatidan alohida maktablarni yuzaga keltirgan. Albatta, bu o‘tmish, maktablarining o‘ziga xos an’ana va uslublari mavjud edi. Ammo



rassom pedagoglar tayyorlashdagi tasviriy san'at ta'limi mazmuni va ustoz rassomlarning bu boradagi faoliyati, ijodiy yutuqlari, shuningdek, tarixi haqida qancha gapirsak, o'rgansak, shuncha oz. San'at ta'limi sohasidagi oliy o'quv yurtlarida tasviriy san'at yo'nalishlaridagi o'qitish tizimida yuzaga kelayotgan muammolarning dolzarbliги shundaki, u bo'lajak mutaxassislarning ijodiy salohiyati va malakasini shakllantirishga bevosita ta'sir qilmoqda. Xususan, oliy o'quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalarning tasviriy san'at sohasidagi bilimlarining tobora pasayib borayotganligi muammolardan biri sifatida olishimiz mumkin. Bu umumta'lim maktablarida ushbu fanga yetarlicha e'tibor berilmaganligi, holbuki, bu fan o'quvchilarning dunyoqarashini shakllantirishda, estetik hissiyotlarini rivojlantirishda va ijodiy qobiliyatlarini oshirishda katta ahamiyatga egadir. Shuningdek, ko'pchilik o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlarida tasviriy san'at bilan shug'ullanishlari uchun ta'lim muassasalarida yetarlicha imkoniyat yo'qligidadir. Juhon miqyosida bo'lajak mutaxassis, jumladan pedagog kadrlarni tayyorlash jarayonida ta'lim va ishlab chiqarish amaliyotining uyg'unligini ta'minlash, ta'lim mazmunini san'atshunoslik asosida va hayotiy tajribalarga asoslangan o'quv materiallari asosida tizimlashtirish, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini san'atshunoslik asosida kasbiy kompetentligini tarkib toptirishning tasviriy san'at texnologiyalarini rivojlantirishni talab etadi. Bolonya jarayoni mutaxassislar tayyorlash mazmunini integratsiyalash va ta'limdagi hamkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishi sifatida bitiruvchilarda umumiy va maxsus, shu jumladan, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini san'atshunoslik asosida kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishni taqozo etmoqda. Respublikamizda bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini san'atshunoslik asosida kasbiy kompetentligini shakllantirish mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlashtirish, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini san'atshunoslik asosida kasbiy kompetentligini shakllantirish bo'yicha o'quv materiallарini tizimlashtirishning didaktik parametrlarini aniqlashtirish, bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini san'atshunoslik asosida kasbiy kompetentligini shakllantirish tashkiliy-texnologik tizimini takomillashtirish muhim vazifa sifatida belgilanadi.



Tasviriy san'at jamiyatning madaniy ongini va estetik idrokini shakllantirishda muhim o'rinn tutishi bois ushbu sohani rivojlantirish natijasida milliy madaniy merosni saqlash va boyitish, jahon iqtisodiyoti va madaniy almashinuvlar sharoitida oliy ta'lif bitiruvchilari jahon miqyosida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun tasviriy san'at sohasida raqobatbardosh ko'nikma va bilimlarga ega bo'lishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu muammolarni hal qilish uchun oliy o'quv yurtlari o'quv dasturlarini takomillashtirish, professor-o'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish, zarur resurslar va infratuzilma bilan ta'minlash, tizim bilan bog'liq tashkilotlar va ish beruvchilar bilan hamkorlikni rivojlantirishga e'tibor qaratishlari kerak. San'at pedagogikasi sohasida bo'lajak mutaxassislarni badiiy tayyorlash (tasviriy san'at o'qituvchilari, dizayn sohasi bo'yicha kasbiy ta'lif pedagoglari) badiiy tayyorgarligi "CHizmatasvir", "Rangtasvir", "Kompozisiya" kabi san'at fanlari bo'yicha kurslar mazmuniga asoslanadi. "Kompozisiya", "Rangshunoslik", "Loyihalash", "SHriftshunoslik" mavzularida o'quvchilarning badiiy didi, sifat mezonlari haqida ma'lum g'oyalar shakllanadi. Turli xil grafik muharrirlar yordamida to'laqonli mahsulotni yaratish uchun badiiy rejaning noto'g'ri hisoblanishiga yo'l qo'ymaslik uchun turli xil bilimlarni moslashuvchan tarzda qo'llash, ularni aniq muammolarni hal qilish uchun qisqartirish maqsadga muvofiq. Ma'lumki, qobiliyatlarni rivojlantirish maqsadida bilim va ko'nikmalar dasturini aniq belgilash bilan ta'lif faoliyati mazmuni ustida maxsus ishlashni talab etadi. Xususan, talabalarning o'qishning har bir bosqichida har xil turdag'i faoliyat turlarini kiritishning nazariy asoslari, bunda ijodkorlikningham tipik, ham etakchi elementlari bo'lgan aniq vazifalarga kirish imkoniyati tug'iladi.[1.2]

Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarini san'atshunoslik sohasiga tayyorlash tizimida, tasviriy san'at namunalari maxsus fanlar bo'yicha tashkil etilgan ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar, maxsus kurslar, ilmiy-tadqiqot, mustaqil ishlar, bo'lajak o'qituvchilarning kurs va diplom ishlari negizida o'rganiladi. Ushbu tizimda tasviriy san'ati uchta yo'nalishda ko'rib chiqiladi:

- birinchi yo'nalish - qadimgi yodgorliklar,



- ikkinchi yo‘nalish - tasviriylar san’at turlari,
- uchinchi yo‘nalish - tasviriylar san’atining asosiy mavzulari va janrlari.

Tasviriylar san’atining qadimgi yodgorliklari, qoyatoshdagi chizmalar, tosh va arxitektura obidalari asosida o‘rganiladi. Qadimgi amaliy-bezak san’ati temir, sopol, yog‘ochdan ishlangan buyumlarni badiiy tahlil qilish asosida yuzaga chiqadi. Bu qadimgi qozon, chuqur lagan, chiroq, qabr toshi, shuningdek amaliy-bezak san’ati, hayvon tasviri aks etgan naqshlar. Inqilobdan oldingi davrda erining birinchi tasviri rassom V.Vereshagin ijodiga mansubdir. Tasviriylar san’at turlari, grafika, rangtasvir va haykaltaroshlik hamda amaliy-bezak san’ati materiallari asosida ko‘rib chiqiladi. Grafikani o‘rganish jarayonida dastlabki grafik-rassomlar ijodi e’tiborga olinadi: A.Ikromov, V.Kaydalov, K.Cherpakov, V.Kedrin, G.Shev'yakov, A.Osheyko. Shuningdek, grafikaning stanokli shakllarini taqdim etgan Q.Basharov, G.Chiganov, A.Siglintsev, M.Kagarov, V.Parshin, Yu.Strelnikov, I.Siganovlar ham juda samarali faoliyat olib borishgan. Rangtasvir sohasida kasb mahoratining ortib borishiga o‘rtal avlod vakillarining ijodiy faoliyati ham katta turki berdi, ushbu jarayon taniqli mo‘yqalam sohiblari O‘.Tansiqboev, P.Benkov, Z.Kovalavevskaya, N.Kashina, V.Ufimsev, V.Kedrinlar ijodida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ular o‘zining individual ish uslubi va yo‘nalishiga ega bo‘lgan ijodkorlar, biroq tasviriylar san’at mакtabida shakllangan an’analarning davomchilaridir. Pedagogika oliv ta’lim muassasalari bo‘lajak tasviriylar san’at o‘qituvchilarining san’atshunoslik sohasiga tayyorgarlik ko‘rishida quyidagi mahoratli rassomlarning ijodini o‘rganish alohida o‘rin tutadi: A.Abdullaev, L.Abdullaev, Sh.Hasanova, Ch.Ahmarov, M.Nabiev, R.Timurov, S.Muhamedov, A.Siddiqiy, A.Roziqov, A.Nuridinov va boshqalar. [2. 203]

Tasviriylar san’at taraqqiyoti natijasi tufayli O‘zbekistonda shakllangan bugungi zamонавиyl ilg‘or an’analar hayotimizga allaqachon kirib borgan bo‘lib, u keng ko‘lamda taraqqiy etmoqda. Busiz odamlarning hozirgi ehtiyojini, ayniqsa yoshlарimizda, san’at va ma’naviyatga bo‘lgan qiziqish va ishtiyоqlarni qondirib bo‘lmaydi. Ijodiy tafakkur butunlay yangi g‘oyalar va tasavvurlarni vujudga keltiradi, shaxsda yashiringan qobiliyat va imkoniyatlarni, o‘ziga xoslikni ro‘yobga chiqishga yordamlashadi. Shuni xam alohida qayd qilish lozimki, bunday sifatlar faqat olimlar



uchungina emas, balki hamma sohada ishlovchilar uchun xam muhimdir. Shuning uchun ham ta’lim tizimida tafakkur va ijodkorlikni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri deb qaraladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda umumiy o‘rtta ta’lim maktablarida ijodiy tafakkurni o‘stirishda tasviriy san’at darslari boshqa fanlar orasida eng katta o‘rinni egallaydi. O‘quvchilarning ijodkorligi esa bolalarda diqqat va tasavvurni o‘stirishi bilan bog‘lanadi. O‘quvchi ayniqsa boshqa sayyoralar, suv osti dunyosi, (afsonaviy hayvonlar, dev, kentavr, suv parisi, dengiz shoxlari va boshq.) bilan bog‘liq rasmlar ishlaganda tasavvurni kuchli ishga solmasdan turib topshiriqni samarali hal qilolmaydi. Qolaversa xar bir ijodiy ishni tasavvursiz kuchli ishga solmasdan turib topshiriqni samarali hal qilolmaydi. [3. 153] Ta’lim muassasalari talabalar tajribasini boyitish va ijodkorlikning yangi darajalarini yaratish uchun qo‘sishimcha yangi va virtual texnologiyalarni o‘qitishga integratsiyalashlari mumkin. Sohalar bo‘yicha jahondagi taniqli va tajribali oliy ta’lim muassasalari bilan o‘zaro hamkorlik aloqalarni mustahkamlashi, amaliyat va stajirovkalarini ko‘paytirish hamda professional seminarlar orqali talabalarga haqiqiy tajriba uchun ko‘proq imkoniyatlarni taqdim etilishi darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. IKROMOV MUHAMMAD ANASXON XAKIMJON O`G`LI. (2023). SAN’AT PEDAGOGIKASI SOHASIDA BO’LAJAK MUTAXASSISLARNI BADIY TAYYORLASHNING NAZARIY ASOSLARI. CONFERENCEA, 1–5. RETRIEVED FROM [HTTPS://WWW.CONFERENCEA.ORG/INDEX.PHP/CONFERENCES/ARTICLE/VIEW/2285](https://www.conferencea.org/index.php/conferences/article/view/2285)
2. BO’LAJAK TASVIRIY SAN’AT O‘QITUVCHILARINI KASBIY KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI NURTAYEV URINBAY NISHANBEKOVICH, ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (2024 ГОД № 1)
3. O’ZBEKİSTON TASVIRIY SAN’ATI MEROŞI AN’ANALARINI ILMIY PEDAGOGIK JIHATLARINI O’RGANISHNING AMALIY ASOSLARI



A.A'ZAMJONOV, IBROHIMOV ASADBEK. ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES 2022
4. **BABADJANOV AXMADJAN QALAMTASVIR [O'QUV QO'LLANMA]**
/- T.: "ILM ZIYO ZAKOVAT", 2023, 112 B.